



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI SHAKLLANISHI

PhD Mexmonaliyev Ulug'bek

Qo'qon universiteti

ORCID: 0009-0007-7561-5391

e.u.mexmonaliyev@kokanduni.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish va takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ichki nazorat tizimining korporativ boshqaruvdagi o'rni, risklarni boshqarishdagi ahamiyati hamda moliyaviy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida ichki nazorat tizimi an'anaviy tekshiruv mexanizmidan proaktiv, real vaqt rejimida ishlovchi boshqaruv instrumentiga aylanishi asoslab berilgan. Shuningdek, ichki nazorat tizimini avtomatlashtirish, axborot tizimlari bilan integratsiya qilish va riskka yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy xatoliklarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ichki nazorat, ichki audit, raqamli iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar.

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

PhD Mexмоналиев Улугбек

Кокандский университет

Аннотация. В данной статье научно проанализированы вопросы формирования и совершенствования системы внутреннего контроля на предприятиях в условиях цифровой экономики. В исследовании освещены роль системы внутреннего контроля в корпоративном управлении, ее значение в управлении рисками и влияние на финансовую устойчивость. Обосновано, что в результате внедрения цифровых технологий система внутреннего контроля превращается из традиционного механизма проверки в проактивный инструмент управления, работающий в режиме реального времени. Также указана необходимость автоматизации системы внутреннего контроля, интеграции с информационными системами и применения риск-ориентированного подхода. Результаты исследования имеют важное значение в повышении эффективности управления на предприятиях, снижении финансовых ошибок и обеспечении эффективного использования ресурсов.

Ключевые слова: внутренний контроль, внутренний аудит, цифровая экономика, корпоративное управление, управление рисками, финансовая устойчивость, автоматизация, цифровые технологии.

FORMATION OF THE INTERNAL CONTROL SYSTEM AT ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

PhD **Mekhmonaliev Ulugbek**
Kokand University

Abstract. *This article scientifically analyzes the issues of forming and improving the internal control system at enterprises in the context of the digital economy. The study highlights the role of the internal control system in corporate governance, its significance in risk management, and its impact on financial stability. As a result of the introduction of digital technologies, it is substantiated that the internal control system will transform from a traditional inspection mechanism into a proactive, real-time management tool. The need to automate the internal control system, integrate it with information systems, and apply a risk-oriented approach is also indicated. The research results are important for increasing the efficiency of management at enterprises, reducing financial errors, and ensuring the efficient use of resources.*

Keywords: *internal control, internal audit, digital economy, corporate governance, risk management, financial stability, automation, digital technologies.*

Kirish.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar, xususan raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini — raqamli iqtisodiyotni shakllantirdi. Raqamli iqtisodiyot nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, balki boshqaruv tizimlarini tubdan yangilashni ham taqozo etadi. Bunday sharoitda korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va risklarni boshqarishda ichki nazorat tizimining roli keskin ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada keng ko‘lamli institutsional va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, davlat boshqaruvini transformatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, unda barcha sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan (Farmon, 2020).

Mazkur strategiya doirasida iqtisodiyotning real sektori korxonalarida boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot tizimlarini keng joriy etish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda (Farmon, 2020). Bu esa korxonalarda ichki nazorat tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni, uni raqamli platformalar asosida shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali davlat va xo‘jalik boshqaruvi tizimlarida shaffoflikni ta‘minlash, inson omilini qisqartirish hamda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish muhim vazifa ekanligini ta‘kidlab kelmoqda. Jumladan, zamonaviy axborot tizimlari va elektron platformalarni joriy etish orqali nazoratning avtomatlashtirilgan shakllarini kengaytirish, real vaqt rejimida monitoringni yo‘lga qo‘yish zarurligi qayd etilgan (Farmon, 2020). Bu esa ichki nazorat tizimini faqatgina moliyaviy nazorat vositasi sifatida emas, balki kompleks boshqaruv instrumenti sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimining ahamiyati bir necha jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, raqamlashtirish jarayonlari korxonalarda ma‘lumotlar hajmining keskin oshishiga olib keladi, bu esa ularni qayta ishlash va tahlil qilishda yuqori darajadagi aniqlik va ishonchlilikni talab etadi. Ikkinchidan, axborot tizimlarining keng qo‘llanilishi yangi

turdagi xavflarni — kiberxavfsizlik, ma'lumotlar yo'qolishi yoki buzilishi kabi risklarni yuzaga keltiradi. Uchinchidan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari inson omilini kamaytirgan holda, nazorat jarayonlarini ham raqamli vositalar orqali amalga oshirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ichki nazorat tizimini takomillashtirishning muhim institutsional asoslarini yaratib bermoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy boshqaruv va audit tizimlarini joriy etish, korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilingan (Qaror, 2020; Qonun, 2016). Ushbu hujjatlarda ichki nazorat tizimini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, axborot tizimlari orqali monitoring va nazoratni avtomatlashtirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ko'plab korxonalarda ichki nazorat tizimi hali ham an'anaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, u raqamli iqtisodiyot talablariga to'liq mos kelmaydi. Bu esa nazoratning samaradorligini pasaytiradi, risklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, axborot tizimlari va ichki nazorat mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi yetarli darajada ta'minlanmaganligi ham muhim muammolardan biridir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- moliyaviy va operatsion risklarning ortishi;
- ma'lumotlar ishonchliligining pasayishi;
- kiberxavfsizlik tahdidlarining kuchayishi;
- boshqaruv qarorlarining sifat darajasining pasayishi;
- resurslardan samarasiz foydalanish.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ichki nazorat tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida qayta shakllantirish zarur. Bunda korxonalarda integratsiyalashgan axborot tizimlari, avtomatlashtirilgan audit vositalari, risklarni boshqarish modullari va real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, xususan COSO modeli va raqamli audit yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois, ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish zarurati yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan kompleks tarzda o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar ichki nazoratning nazariy asoslari, institutsional mexanizmlari hamda raqamli transformatsiya jarayonidagi evolyutsiyasini yoritadi.

Mahalliy olimlar ilmiy ishlarida ichki nazorat tizimining korxonalar barqarorligi va samaradorligini ta'minlashdagi o'rni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Mexmonaliyev (2026) ichki nazorat tizimini korporativ boshqaruvning ajralmas elementi sifatida baholab, uning risklarni boshqarish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash va firibgarliklarning oldini olishdagi rolini asoslaydi. Xalilov (2025) esa ichki nazoratni xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining uzluksiz boshqaruv jarayoni sifatida talqin qilib, uning asosiy

vazifalari operatsion samaradorlikni oshirish, moliyaviy axborotlarning haqqoniyligini ta'minlash va normativ talablar ijrosini nazorat qilishdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotlarida ichki moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, riskka asoslangan boshqaruvni rivojlantirish hamda audit tizimi mustaqilligini kuchaytirish zarurligi asoslab beriladi (Qudbiyev va boshq., 2022). Narzullayeva (2025) esa ichki nazorat tizimi orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va xo'jalik faoliyatida xatolik hamda firibgarliklarning oldini olish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida ichki nazorat tizimining raqamli iqtisodiyot sharoitidagi transformatsiyasi chuqur o'rganilgan. Babkina (2021) ichki nazorat tizimini raqamlashtirish orqali inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirish, nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Li (2022) esa sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar asosida ichki nazorat modellarini ishlab chiqish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlarini asoslaydi.

Andreeva, Popova va Tarasova (2019) ichki nazorat tizimini moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida baholab, uni risklarni baholash tizimi bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydilar. Ponomareva (2021) esa ichki nazorat tizimi sifati korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini, ichki va tashqi omillarni kompleks baholash zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Shuningdek, Rastegaeva va Perejogin (2020) tomonidan ichki nazorat tizimining raqamli transformatsiyasi "uch himoya chizig'i" modeli asosida tahlil qilinib, uni yuqori texnologik platformalar bilan integratsiyalash zarurligi asoslab berilgan. Lugovkina va Kozlov (2017) esa raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligi va iqtisodiy xavfsizlik omillarining kuchayishi ichki nazorat tizimini takomillashtirishni talab etishini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimi an'anaviy nazorat mexanizmlaridan farqli ravishda raqamlashtirilgan, integratsiyalashgan va riskka yo'naltirilgan boshqaruv tizimiga aylanmoqda. Bu esa korxonalar faoliyatining samaradorligi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish masalalarini o'rganishda tizimli yondashuv, tahliliy va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya metodlari asosida ichki nazorat tizimining nazariy jihatlari umumlashtirildi hamda uning amaliyotdagi holati baholandi.

Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Raqamli va an'anaviy ichki nazorat tizimlari o'rtasidagi farqlarni aniqlashda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Tadqiqot natijalarini asoslashda mantiqiy umumlashtirish, grafik va jadval usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologiya ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish jarayoni zamonaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lib, u an'anaviy nazorat yondashuvlarining tubdan o'zgarishini talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar keng joriy etilishi natijasida ichki nazorat tizimi faqat tekshiruv funksiyasini bajaruvchi mexanizm emas, balki boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi, risklarni oldindan aniqlovchi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi kompleks tizimga aylanmoqda. Ayniqsa, ma'lumotlar asosiy iqtisodiy resursga

aylangan sharoitda ichki nazorat tizimi ham ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari bilan uzviy integratsiyalashgan holda shakllanmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlari ichki nazorat tizimining mazmuni va funksional yo'nalishlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Agar an'anaviy nazorat tizimlari asosan moliyaviy hisobotlarni tekshirish va xatoliklarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida nazorat tizimi real vaqt rejimida ishlovchi, tezkor va moslashuvchan tizimga aylanadi. Bu esa korxonada sodir bo'layotgan operatsiyalarni doimiy monitoring qilish, ehtimoliy xatoliklar va xavflarni oldindan aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada nazorat tizimi reaktiv emas, balki proaktiv xarakter kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyotda ichki nazorat tizimining samaradorligi, avvalo, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, biznes jarayonlarning avtomatlashtirilganlik darajasi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanishiga bog'liq. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi analitik tizimlar, sun'iy intellekt va bulutli texnologiyalar nazorat jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtiradi. Bu esa korxonada yuzaga keladigan operatsion, moliyaviy va strategik risklarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirib, boshqaruv qarorlarining tezkor va asoslangan bo'lishini ta'minlaydi.

Quyidagi jadval ichki nazorat tizimining an'anaviy va raqamli shakllari o'rtasidagi asosiy farqlarni aks ettiradi.

1-jadval

**Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimining an'anaviy
va zamonaviy modellari taqqoslanishi**

Ko'rsatkich	An'anaviy nazorat tizimi	Raqamli nazorat tizimi
Axborot manbai	Hisobotlar va hujjatlar	Real vaqt ma'lumotlari
Nazorat usuli	Qo'lda tekshiruv	Avtomatlashtirilgan monitoring
Risklarni aniqlash	Kechikkan	Oldindan prognozlash
Qaror qabul qilish	Sekin	Tezkor va analitik
Moslashuvchanlik	Past	Yuqori

Jadvaldan ko'rinadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib, operativlik, aniqlik va samaradorlik darajasi ortadi. Bu esa korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.


Ichki nazorat tizimining shakllanishi jarayonida risklarni boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli iqtisodiyotda risklar nafaqat moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq, balki axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiylik va texnologik nosozliklar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shu sababli ichki nazorat tizimi kompleks yondashuv asosida shakllantirilib, barcha turdagi risklarni qamrab olishi lozim. Riskka yo'naltirilgan yondashuv nazorat resurslarini eng muhim va xavfli jarayonlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Shuningdek, ichki nazorat tizimi korxonada samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samarali tashkil etilgan nazorat tizimi resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, moliyaviy xatoliklar va firibgarlik holatlarini kamaytiradi hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganlik darajasini kuchaytiradi. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, nazorat tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi yoki fragmentar xarakterga ega bo'lishi korxonada faoliyatida samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

Ichki nazorat tizimini shakllantirish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Mazkur jarayon uzluksiz bo'lib, u korxonada faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan monitoring tizimi ichki nazoratning samaradorligini keskin oshiradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimi korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Uning samarali ishlashi esa zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, risklarni kompleks boshqarish va malakali kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq. Natijada ichki nazorat tizimi zamonaviy korxonalarda strategik boshqaruvning ajralmas va muhim elementi sifatida shakllanadi.



1-sxema. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimini shakllantirish jarayoni

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimi sezilarli transformatsiyaga uchrayotganligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, an'anaviy nazorat usullari zamonaviy, tezkor va murakkab biznes jarayonlarini to'liq qamrab olishda yetarli emas. Shu sababli, ichki nazorat tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ichki nazorat tizimining funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, real vaqt rejimida monitoring, avtomatlashtirilgan audit va ma'lumotlar tahlili orqali nazorat jarayonlari tezkor va aniq amalga oshiriladi. Bu esa xatoliklar va risklarni erta aniqlash, boshqaruv qarorlarini asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi. Natijada ichki nazorat tizimi passiv tekshiruv vositasidan faol boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Shuningdek, tadqiqotda riskka yo'naltirilgan yondashuvning muhimligi alohida ta'kidlandi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida risklar faqat moliyaviy soha bilan cheklanmay, balki kibernetika, ma'lumotlar himoyasi va texnologik uzilishlar bilan ham bog'liq bo'ladi. Shu bois ichki nazorat tizimi barcha turdagi risklarni qamrab olgan holda kompleks tarzda

shakllantirilishi lozim. Bu esa nazorat resurslarini eng muhim va xavfli yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Muhokama jarayonida ichki nazorat tizimining mustaqilligi va tashkiliy samaradorligi ham muhim omil sifatida baholandi. Mustaqil va xolis nazorat tizimi korporativ boshqaruvda shaffoflikni ta'minlaydi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi hamda firibgarlik holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimining samaradorligi inson kapitaliga ham bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar mavjud bo'lgan korxonalarda nazorat tizimi ancha samarali ishlaydi.

Biroq, amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim korxonalarda ichki nazorat tizimi hali ham an'anaviy shaklda qolib ketgan, axborot tizimlari bilan integratsiya darajasi past hamda raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi moliyaviy va tashkiliy cheklovlar mavjud. Bu holatlar nazorat tizimi samaradorligini pasaytiradi.

Umuman olganda, ichki nazorat tizimi raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining barqaror faoliyati va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim strategik vositaga aylanmoqda. Uning samaradorligi esa zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, risklarni kompleks boshqarish va malakali kadrlar tayyorlash bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda ichki nazorat tizimi an'anaviy shakldan zamonaviy, integratsiyalashgan va raqamlashtirilgan boshqaruv mexanizmiga aylanishi zarur. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, samarali tashkil etilgan ichki nazorat tizimi korxonalarda operatsion xarajatlarni kamaytiradi, moliyaviy xatoliklar va firibgarlik xavfini pasaytiradi hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshiradi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ichki nazorat tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirib, uni real vaqt rejimida ishlovchi, tezkor va proaktiv tizimga aylantiradi. Biroq amaliyotda ayrim korxonalarda ichki nazorat tizimining raqamlashtirish darajasi pastligi, axborot tizimlari bilan integratsiyaning yetarli emasligi hamda malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

— korxonalarda ichki nazorat tizimini raqamli platformalar asosida qayta shakllantirish, jumladan, avtomatlashtirilgan audit tizimlari va real vaqt monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur;

— ichki nazorat tizimini xalqaro standartlar, xususan COSO modeli asosida tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirish lozim;

— riskka yo'naltirilgan yondashuvni keng joriy etish, bunda moliyaviy risklar bilan bir qatorda kibexavfsizlik va axborot xavfsizligi risklariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq;

— korxonalarda axborot tizimlari va ichki nazorat mexanizmlarining integratsiyasini ta'minlash orqali ma'lumotlar ishonchligini oshirish zarur;

— ichki audit va nazorat sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi;

— davlat darajasida korxonalarda ichki nazorat tizimini raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki nazorat tizimini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, risklarni samarali boshqarish va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois, ichki nazorat tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar / Лумепатрыпа / Reference:

Andreeva, S. V., Popova, E. E., & Tarasova, T. M. (2019). *Integration of the internal control system for financial stability of the organization. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences.*

Bahodirovich, X. B. (2025). *KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 1(4), 72-78.*

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida.*

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid nutqlari va topshiriqlari (2025-yil 22-oktabr, PF-189-son Farmon).*

Larisa, P. (2021). *Investigation of the Influence of Internal Control System Factors on the Financial Stability of Companies. Корпоративные финансы, 15(2), 66-76.*

Li, Q. (2022). *Internal Control Model of Enterprise Financial Management Based on Market Economy Environment. Advances in Multimedia, 2022(1), 6279068.*

Mexmonaliyev, U. (2026). *KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 4(3).*

Narzullayeva Ozoda Qahramon Qizi (2025). *KORXONALARDA ICHKI MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI. Journal of marketing, business and management, 4 (1), 398-400.*

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son Qarori "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".*

Qaror (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son Qarori "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida".*

Qonun (2016) *O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son Qonuni. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri)"*

Qudbiyev, N. T., Ulug'Bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). *TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.*

Бабкина, О. М. (2021) *Saint-Petersburg State University of Economics (Saint-Petersburg, Russia).*

Луговкина, О. А., & Козлов, В. Д. (2017). *Экономическая безопасность предприятия в условиях цифровой экономики. Азимут научных исследований: экономика и управление, 6(4 (21)), 163-166.*

Растегаева, Ф. С., & Пережогин, И. С. (2020). *Трансформация системы внутреннего контроля коммерческой организации в условиях цифровизации экономики. Креативная экономика, 14(6), 1091-1104.*